


SIRDARYO VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2019 yil yanvar-may oylari)


Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1202,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 139,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,1 b.%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1062,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 98,9 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 %ga ko`paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so`m)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo`lgan Guliston shahri (487,0 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (194,3 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (107,4 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (99,1 mlrd.so'm), ijobi tasirini ko`rsatmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 b.% ga ko'paydi va 139,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining 11,6 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 1062,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil yanvar-may oylari 89,8 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 88,4 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,2 %), va Boyovut (98,1%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (23,1 %), Yangiyer shahri (6,4 %) va Mirzaobod tumanlari (4,3 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1202,2	108,7	1062,5	102,2
Guliston sh.	487,0	118,2	374,4	102,9
Shirin sh	16,9	101,3	16,8	102,2
Yangiyer sh tumanlar:	107,4	103,5	100,5	101,3
Boyovut	59,9	99,6	58,7	101,1
Guliston	44,6	104,7	43,2	102,4
Mirzaobod	99,1	105,5	94,8	102,7
Oqoltin	58,2	103,1	56,7	101,1
Sardoba	51,3	103,7	50,0	101,8
Sayxunobod	39,1	102,0	37,2	102,0
Sirdaryo	194,3	103,1	185,9	102,1
Xovos	44,4	101,0	44,2	101,4

Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-aprel oylari (%)



2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1446,0 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (5459,3 ming so`m), Yangiyer shahri (2520,6 ming so`m) va Sirdaryo tumanida (1543,3 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Boyovut tumanı (469,9 ming.so`m), Xovos tumanida (473,6 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (514,4 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1446,0	106,9
Guliston sh.	5459,3	117,0
Shirin sh	914,9	101,3
Yangiyer sh	2520,6	101,3
tumanlar:		
Boyovut	469,9	97,8
Guliston	630,3	102,2
Mirzaobod	1387,9	103,1
Oqoltin	1141,4	101,4
Sardoba	791,5	101,8
Sayxunobod	514,4	100,3
Sirdaryo	1543,3	101,5
Xovos	473,6	99,3


Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 %ni tashkil etib, 21,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-may oylari)

Yanvar-may oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 605,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,3 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko`ra, 372,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 61,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer va Shirin shahrida (100,0 %) va Sirdaryo tumanida (88,6 %) yuqori bo'lган.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko`ra, 233,3 mld. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 38,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,6 %), Boyovut tumanida (94,4 %) va Xovos tumanida (91,4 %) yuqori bo`lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	605,4	104,3	233,3	105,6	372,1	103,6
Guliston sh.	203,6	88,7	28,3	47,2	175,3	103,4
Shirin sh	0,3	102,0	-	-	0,3	103,2
Yangiyer sh	11,3	103,3	-	-	11,3	103,3
tumanlar:						
Boyovut	52,2	133,7	49,3	136,0	2,9	103,7
Guliston	13,9	124,6	8,8	142,8	5,2	102,5
Mirzaobod	37,2	118,7	9,2	204,3	28,0	104,3
Oqoltin	11,5	133,5	9,1	145,4	2,4	102,4
Sardoba	43,9	100,0	43,2	100,0	0,6	103,5
Sayxunobod	78,0	129,7	57,9	143,0	20,1	102,4
Sirdaryo	141,0	106,4	16,1	131,1	124,9	103,9
Xovos	12,5	97,3	11,4	96,7	1,1	104,3

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (31,7 %), Sirdaryo tumanida (21,9 %), Sayhunobod tumanida (13,6 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34